



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TALIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.

G'anijonova Gulshoda Dilshod qizi

Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili

102-guruh 1-kurs talabasi

Telefon raqami: +998979980730

Email pochta: gulshodaganiyeva07@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rolini tahlil qiladi. Raqamli vositalar, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi texnologiyalar ta'limning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish yo'llari, interaktiv metodlar, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish masalalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar.

Abstract. This article analyzes the role of modern technologies in the educational process. It extensively highlights the importance of digital tools, artificial intelligence, virtual reality, and augmented reality technologies in increasing the effectiveness of education. In addition, it examines the effective use of digital learning tools, interactive methods, and the development of students' digital literacy skills.

Keywords: education system, modern technologies, innovation, digital education, distance learning, information and communication technologies, interactive methods.

XXI asr bu axborot va texnologiyalar asri. Global rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bir qator o'zgarishlarga uchramoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'limsiz va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirmasdan turib, milliy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bu nafaqat kompyuter yoki internetdan foydalanish, balki ta'limni interaktiv, ijodiy va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish demakdir. Shuning uchun ham ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, ta'limda texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini faollashtiradi, talabalarning mustaqil o'rganish salohiyatini oshiradi, hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga masofadan o'qish imkoniyatini ham beradi. Bu esa, imkoniyati cheklangan yoki maktabga bora olmaydiganlarning ta'lim olishini ham ta'minlay oladi. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini shunchaki raqamlashtirish emas, balki ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday metodlar yordamida talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari





shakllanadi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim vositalarining afzalliklari juda ko'p, ulardan biri elektron kutubxonalar va onlayn resurslardan foydalanish. Misol uchun, Khan Academy, Duolingo, Coursera, Edmodo, KamOnline platformalari o'quvchilarga o'z mustaqil ta'lim yo'lini yaratish imkonini beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham Ziyonet, EDU Market, Online Maktab, Ibrat Akademiya kabi milliy platformalar o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish muhim. Chunki o'qituvchi raqamli muhitda dars tashkil etishni, onlayn resurslardan foydalanishni, elektron testlar va o'quv materiallarini yaratishni bilishi lozim. Shu maqsadda respublikamizda "Raqamli o'qituvchi" pedagoglar malakasini oshirish kabi loyihalar yo'lga qo'yilgan. Bu dasturlar o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llashni o'rgatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, o'qituvchilarga darsni innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, har bir ta'lim muassasasi o'qitish jarayoniga texnologiyalarni chuqur integratsiya qilishi, o'qituvchilar raqamli savodxonligini muntazam oshirib borishi lozim. Faqat shu yo'l bilan O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlangan davlatlar ta'limi bilan tenglasha oladi. Zamonaviy texnologiyalar insonlarni maqsadga tezroq yetishiga yordam beradigan asosiy quroldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi qarori.
2. Karimov I.A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent: Fan, 2022. – 302 bet.
3. Hasanova S. "Pedagogik texnologiyalar". Andijon, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlari.
5. www.edu.uz – O'zbekiston ta'lim portali.
6. www.ziyonet.uz – Elektron ta'lim resurslari tarmog'i.

